

O‘ZBEK TILIDA KONSONANTIZMLARNING FONOLOGIK OPPOZITSIYALARIDA DARAJALANISH

Zakirova Hafiza Razzaqovna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Andijon davlat universiteti

Fonologik oppozitsiya kamida ikki fonemaning farqlanish belgisi asosida o‘zaro zidlanish hosil qilishidir. Bu zidlanish asosida fonemalarning farqli belgilari aniqlanadi. N.S.Trubeskoy ta’kidlaganiday, ikki narsa bir-biriga zidlanganidagina o‘zaro farqli belgisi namoyon bo‘ladi. Xuddi shuningdek, fonemalarning belgisi ham boshqa shunga yaqin fonemalarning belgisiga zidlangandagina, uning ma’no farqlash (distinktiv) funksiyasi namoyon bo‘ladi.

Fonemalar o‘zlarining fonologik muhim belgilari bilangina o‘zaro zid munosabatda bo‘ladi. Demak, har qanday fonema, albatta, ma’lum zidlanishning a’zosi bo‘ladi. Har qanday real talaffuz qilinayotgan tovush esa fonologik muhim bo‘lmagan belgilarga ham ega bo‘ladi. Demak, undoshlarda invariant-variant munosabatini belgilash uchun ularning fonologik muhim va nomuhim belgilarini ajratish katta ahamiyat kasb etadi.

Masalan, (d-t) oppozitsiyasi jarangli-jarangsizlik belgisi differensial belgi bo‘lib, bu belgi asosida bir oppozitsiyani tashkil qilgan. Yuqoridagi ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi va integral belgi hisoblanadi: har ikkalasi til oldi va portlovchi va ikkala fonema ham shovqinli hisoblanadi. Xulosa esa shuki, "d" va "t" fonemasi o‘zaro bitta farqlanish (differensial) belgisi asosida bitta oppozitsiyaga birlashgan.

Professor A.Abdiazizov undosh fonemalarni oppozitsiyasini quyidagi uch turlarga ajratadi:

1) talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a’zosi va nutqning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra;

2) artikulyatsiya usuli va to‘siqning qanday hosil bo‘lishiga ko‘ra;

3) jarangsiz-jaranglilik belgilariga ko‘ra.

Ko‘rinadiki, professor A.Abdiazizov undosh fonemalarni artikulyatsiya jarayoniga ko‘ra oppozitsiya turlariga ajratgan. Biz oppozitsiya turlarini differensial belgining miqdoriga qarab uch darajaga ajratdik:

1-darajali fonologik oppozitsiyalarda differensial belgi bitta bo‘ladi (D1);

2-darajali fonologik oppozitsiyalarda differensial belgi ikkita bo‘ladi (D2);

3-darajali fonologik oppozitsiyalarda differensial belgi uchta bo‘ladi (D3).

1. D1 turdagi fonologik oppozitsiyalar:

№	Oppozitsiya	Differensial belgilar	Integral belgilar
---	-------------	-----------------------	-------------------

1	b ↔ d	b (labial) – d (til undoshi)	jarangli, portlovchi, shovqinli
2	p ↔ t	p (labial) – t (til undoshi)	jarangsiz, portlovchi, shovqinli
3	m ↔ n	m (labial) – n (til undoshi)	jarangli, portlovchi, sonor
4	v ↔ z	v (labial) – z (til undoshi)	jarangli, sirg'aluvchi, shovqinli
5	f ↔ s	f (labial) – s (til undoshi)	jarangsiz, sirg'aluvchi, shovqinli
6	f ↔ sh	f (labial) – sh (til undoshi)	jarangsiz, sirg'aluvchi, shovqinli
7	v ↔ y	v (labial) – y (til undoshi)	jarangli, sirg'aluvchi, shovqinli
8	p ↔ k	p (labial) – k (til undoshi)	jarangsiz, portlovchi, shovqinli
9	b ↔ g	b (labial) – g (til undoshi)	jarangli, portlovchi, shovqinli
10	f ↔ x	f (labial) – x (til undoshi)	jarangsiz, sirg'aluvchi, shovqinli
11	v ↔ g'	v (labial) – g' (til undoshi)	jarangli, sirg'aluvchi, shovqinli
12	f ↔ h	f (labial) – h (bo'g'iz undos)	jarangsiz, sirg'aluvchi, shovqinli
13	t ↔ k	t (til oldi) – k (til orqa)	jarangsiz, portlovchi, shovqinli
14	t ↔ q	t (til oldi) – q (til orqa)	jarangsiz, portlovchi shovqinli
15	d ↔ g	d (til oldi) – g (til orqa)	jarangli, portlovchi, shovqinli
16	s ↔ x	s (til oldi) – x (til orqa)	jarangsiz, sirg'aluvchi, shovqinli
17	z ↔ g'	z (til oldi) – g' (til orqa)	jarangli, sirg'aluvchi, shovqinli
18	n ↔ ng	n (til oldi) – ng (til orqa)	jarangli, portlovchi, sonor
19	d ↔ z	d (portlovchi) – z (sirg'aluv)	jarangli, til undoshi, shovqinli
20	s ↔ z	s (jarangsiz) – z (jarangli)	til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli

D1 darajali oppozitsiyalarga (k-g), (q-x), (sh-ch) kabi oppozitsiyalar ham kiradi. Bu oppozitsiyalar boshqa oppozitsiya qaraganda miqdor jihatdan ko'proq uchraydi.

2. D2 turdagi fonologik oppozitsiyalar:

№	Oppozitsiya	Differensial belgilar	Integral belgilar
1	v ↔ l	v (labial) – l (til undoshi) v (shovqinli) – l (sonor)	jarangli, sirg'aluvchi
2	v ↔ r	v (labial) – r (til undoshi) v (shovqinli) – r (sonor)	jarangli, sirg'aluvchi
3	f ↔ y	f (labial) – y (til undoshi) f (jarangsiz) – y (jarangli)	sirg'aluvchi, shovqinli
4	v ↔ h	v (labial) – h (bo'g'iz undo) v (jarangli) – h (jarangsiz)	sirg'aluvchi shovqinli
5	z ↔ h	z (til undo) – h (bo'g'iz undo) z (jarangli) – h (jarangsiz)	sirg'aluvchi, shovqinli
6	b ↔ n	b (labial) – n (til undoshi) b (shovqinli) – n (sonor)	jarangli, portlovchi
7	j ↔ ng	j (til oldi) – ng (til orqa) j (shovqinli) – ng (sonor)	jarangli, portlovchi
8	n ↔ g	n (til oldi) – g (til orqa) n (sonor) – g (shovqinli)	portlovchi, jarangli
9	ch ↔ h	ch (til oldi) – h (bo'g'iz) ch (qorishiq) – h (sof)	jarangsiz, shovqinli
10	s ↔ r	s (jarangsiz) – z (jarangli) s (shovqinli) – r (sonor)	til oldi, sirg'aluvchi

D2 turdagi oppozitsiyalar D1 ga nisbatan kam, lekin D3 ga nisbatan ko‘p. Bu oppozitsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda differensial va integral belgilar soni teng bo‘ladi.

3. D3 turdagi fonologik oppozitsiyalar:

№	Oppozitsiya	Differensial belgilar	Integral belgilar
1	dj ↔ h	dj (til oldi) -h (bo‘g‘iz) dj (til oldi) -h (bo‘g‘iz) dj (jarangli) -h (jarangsiz)	shovqinli
2	g ↔ h	g (jarangli) -h (jarangsiz) g (til undoshi) -h (bo‘g‘iz undoshi) g (portlovchi) -h (sirg‘aluvchi)	shovqinli
3	j ↔ h	j (jarangli) -h (jarangsiz) j (til undoshi) -h (bo‘g‘iz undoshi) j (portlovchi) -h (sirg‘aluvchi)	shovqinli
4	r ↔ x	r (jarangli) -x (jarangsiz) r (til oldi) -x (til orqa) r (sonor) -x (shovqinli)	sirg‘aluvchi
5	n ↔ k	n (jarangli) -k (jarangsiz) n (til oldi) -k (til orqa) n (sonor) -k (shovqinli)	portlovchi
6	m ↔ v	m (lab-lab) -v (lab-tish) m (sonor) -v (shovqinli) m (portlovchi) -v (sirg‘aluvchi)	jarangli

D3 turdagi oppozitsiyalar miqdor jihatdan kam hisoblanib, zidlanish kuchli darajada bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, bu holatdagi oppozitsiyalarda differensial belgilari ko‘paygan sari integral belgilari kamayadi yoki aksincha integral belgilari ko‘paygan sari differensial belgilari kamayadi. Boshqacha aytganda, oppozitsiya darajalariga qarab zidlanish kuchayib boradi. Bu holatni quyidagicha tasvirlash mumkin:

D1 holatda $(D < I) = (1 < 3)$

D2 holatda $(D=I) = (2=2)$

D3 holatda $(D > I) = (3 > 1)$

Demak, fonologik oppozitsiyalar fonemalar orasidagi differensial belgilarning miqdoriga qarab darajalanadi. D1 darajada differensial belgilar bilan integral belgilar $1 < 3$ nisbatta (zidlanish past), D2 darajada $2=2$ teng nisbatda (zidlanish o‘rta me‘yorda), D3 darajada esa $3 > 1$ nisbatda (zidlanish kuchli) bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tili konsonantizmining fonologik oppozitsiyalari zidlanish darajasiga ko‘ra uch xil bo‘ladi.